

Bugungi kunda erkak va ayollar tengligi haqida ko'plab qarorlar qabul qilinib mustahkamlanib borilmoqda va shu bilan birgalikda Urganch davlat universiteti ham Gender tengligiga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, ayollar va erkaklar teng huquq va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda ayollar va erkaklar o'rtasidagi haqiqiy tenglikni targ'ib qilish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.


Universitet barcha darajadagi ayollar va erkaklarning muvozanatli vakilligini ta'minlashga intiladi. Har bir insonning qadr-qimmati va benuqsonligi hurmat qilinishi kerak. Jinsiy zo'ravonlik xatti-harakatlar inson qadr-qimmatiga tajovuz hisoblanadi va UrDU bunday harakatlarni qoralaydi. Universitet Jinsiy zo'ravonlik holatlari uchramasligi maqsadida barcha chora tadbirlarni olib boradi.



Universitet tashkil topganday buyon bunday Gender tenglikni buzuvchi hatti harakatlar uchramagan va har doim teng imkoniyatlarga erishish uchun tegishli ma'lumotlar muntazam ravishda to'planib borilyapti, Universitet boshqaruv vositalari bilan bog'lanadi va taraqqiyotni kuzatish va keyingi harakatlar uchun asos yaratish uchun tahlil qilinadi. Gender tengligi bo'yicha siyosatni Universitet miqiyosida tadbiiq qilinadi va Universitet xotin-qizlar qo'mitasi xodimlar va talabalarga gender siyosatining barcha masalalari bo'yicha maslahat beradi va ularga o'z

haq huquqlari o'rgatilib boradi. Har bir insonning qadr-qimmati uning jinsidan qat'iy nazar hurmat qilinishi kerak!

O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasi 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" dep belgilangan va bu qonunni buzganlar uchun kerakli qonun doirasida javob beriladi. Universitet shu asosida ish olib boriladi va kerakli choralar ko'riladi.



Hozirgi kunda Universitetning har bir fakultetida har hafta oxirida talabalar uchun yig'ilishlar o'tkaziladi va yetarlicha ma'lumot beriladi. Undan tashqari talabalar Gender tengligi bo'yicha o'z maqolalarini fakultet rahbarlariga yozma tariqasida topshiradi va ularga gender siyosatining barcha masalalari bo'yicha maslahat beriladi.



Asosiy prinsiplar:

1. Ikkala jinsning manfaatlari barcha darajalarda optimal tarzda ta'minlanishi kerak. Bu barcha ish sharoitlarida teng vakillik, shuningdek, har qanday o'ziga xos gender manfaatlarini munosib hisobga olishni o'z ichiga oladi.
2. Universitet xodimlar va talabalarga ish yoki o'qishni oilaviy majburiyatlar bilan birlashtirishga imkon beruvchi bandlik shakllarini qo'llab-quvvatlaydi. Universitet xodimlar va talabalar uchun bolalarni parvarish qilish uchun sharoit yaratadi.
3. Har bir shaxs kelib chiqishidan,sharoitidan,yashash tarzidan qat'iy nazar hurmat qilinishi kerak.
4. Universitetda ayol va erkaklar o'rtasida teng munosabatda bo'linishi kerak.
5. Gender tengligi bo'yicha komissiya xodimlari talabalarga gender siyosatining barcha masalalari bo'yicha maslahat beradi.